

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.

3470JHRC***Familiya Ism (Viloyat)**
***JAVOBLAR**

Namuna: 3470JHRC*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...

Izoh:

- 1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida **O',G'** harflari qatnashsa ularni o'rniga **U** va **G** harflarini ishlating.
- 2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.
- 3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. **15.07.2019-17.07.2019**
- 4) Repetitsion testning sms javoblari soat **21:00** gacha qabul qilinadi.

Natijalar: Har kuni **@repetitsiontestuz** kanalida soat **22:00** e'lon qilinadi

SAVOLLAR KITOBI

999987

BLOKLAR:

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.


IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA

1. Ikkita natural sonni 3 ga bo'lganda qoldiqda 1 va 2 qoldi. Bu sonlar kvadratlarining musbat ayirmasini 3 ga bo'lganda qanday qoldiq qoladi?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 1 yoki 2
2. $1/4$ va $2/3$ sonlar orasidagi maxraji 24 bo'lgan qisqarmas kasrlar yig'indisini toping.
A) $\frac{17}{24}$ B) $1\frac{7}{24}$ C) $1\frac{5}{24}$ D) 1
3. Agar $25 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 64$ bo'lsa, $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$ ifodaning eng kichik qiymati qanday bo'ladi?
A) 1,6 B) $25/32$ C) 0,2 D) 1,25
4. Hisoblang $\frac{|4-4 \cdot |3-6|-8|}{|4-|3-8|-7|}$.
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
5. $4y^2 + 12\sqrt{2}y + 2x^2 + 8x + 26 = 0$ bo'lsa, $x/4 + 4y^2$ qanday bo'ladi?
A) 17,5 B) 18,5 C) 2,5 D) 19
6. $z^2 - \frac{\sqrt{85}}{4}z + 1\frac{5}{16} = 0$ tenglamaning katta va kichik ildizlari kublarining ayirmasini toping.
A) -2 B) 2 C) -1 D) 1
7. To'g'ri burchakli ABC uchburchakda $EF = 4$ sm, $EF \perp AB$ bo'lgan kesma olingan. $BE = 5$ sm, va $AF = 7$ sm bo'lsa, CE ning uzunligi qanday bo'ladi (sm)?
A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
- 
8. Aylananing markaziy burchagi 60° bo'lgan yoyining uzunligi 10 sm bo'lsa, aylananing radiusi qanday bo'ladi (sm)?
A) $\frac{30}{\pi}$ B) $\frac{15}{\pi}$ C) $\frac{24}{\pi}$ D) $\frac{36}{\pi}$
9. Doira radiusi 5. Uzunligi 8 bo'lgan vatar doira markazidan qanday masofada joylashgan?
A) 2,6 B) 3,2 C) 2,8 D) 3
10. Rombning diagonallari ko'paytmasi 90 ga teng. Rombning balandligi 5 ga teng. Rombning perimetrini toping.
A) 36 B) 16 C) 32 D) 28
11. Tenglamalar sistemasini yeching: $\begin{cases} x^2 - 1 = 0, \\ xy^2 = -4 \end{cases}$
A) (2; -1) B) (1; 2)
C) (-1; 2) D) (-1; 2) va (-1; -2)
12. $\frac{\sqrt{x-3} + \sqrt{x+3}}{\sqrt{x-3} - \sqrt{x+3}} = -\frac{x+1}{2}$ tenglamaning yechimlari to'plamini toping.
A) {5; -3} B) {5} C) {5; 10} D) {3; 10}
13. $\begin{cases} -4y < 12 \\ y + 6 < 6 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining barcha butun yechimlari ko'paytmasini toping.
A) 2 B) -2 C) 6 D) -6
14. $(x-1) \cdot \sqrt{8-2x-x^2} \leq 0$ tengsizlik yechimini ko'rsating.
A) [-2; 3] B) [2; ∞)
C) [-4; 1] \cup {2} D) [-2; 1] \cup {3}

15. x_n ketma-ketlik uchun $x_n = x_{n-1} - x_{n-2}$, $n \geq 3$, $x_2 = 2$, $x_1 = 1$ o'rinli x_5 ni toping.
A) 2 B) 5 C) -2 D) -5
16. $(\sqrt{3+2\sqrt{2}})^x + (\sqrt{3-2\sqrt{2}})^x = 6$ tenglama ildizlarining ko'paytmasini toping.
A) -4 B) 2 C) -2 D) 4
17. $a = \log_{0,2} 8$; $b = \log_4 2$; $c = \log_{0,9} 0,6$; $d = \log_3 0,8$ va $l = \log_{0,9} 2$ sonlaridan qaysilari musbat?
A) cud B) a, d, l C) buc D) a, c, d
18. Agar $|\overline{AB}| = |\overline{AC}| = |\overline{AB} + \overline{AC}| = 4$ bo'lsa, $|\overline{CB}|$ qanday bo'ladi?
A) 4,5 B) $2\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{2}$ D) $4\sqrt{3}$
19. $ABCD$ kvadrat tekisligiga A uchidan AK perpendikulyar o'tkazilgan. Agar $AB = 3$, $BK = 4$ bo'lsa, K nuqtadan kvadratning C uchigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) $5\sqrt{2}$ B) 4 C) 5 D) 6
20. Kubning diagonal kesimi yuzi $16\sqrt{2}$ ga teng. Kubning qirrasini toping.
A) 4 B) $2\sqrt{2}$ C) $4\sqrt{2}$ D) 8
21. Kesik piramidaning ustki asosining yuzi ostkisining yuzidan uch marta kichik. Piramidaning hamma yon yoqlari pastki asos tekisligiga 60° burchak ostida og'gan. Ostki asosning yuzi uning yon sirtining necha foizini tashkil etadi?
A) 75 B) 40 C) 60 D) 50
22. $y = \sqrt{\log_{0,2} \frac{x+2}{x-1} - 1}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $[-11/4; -2)$ B) $[-2; 1)$ C) \emptyset D) $(-\infty; -2]$
23. $y = 2x^2 + 4x - 8$ funksiya grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklarida joylashgan?
A) I, III, IV B) I, II, III, IV
C) II, III, IV D) I, II, III
24. Agar $\int_{-1}^1 (4x+b)dx = 4$ bo'lsa, b ni toping.
A) $\frac{1}{3}$ B) 2 C) $\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{4}$
25. Hisoblang $\operatorname{tg}\left(\arctg 2 - \arccos \frac{12}{13}\right)$.
A) $\frac{2}{13}$ B) 0 C) $\frac{19}{22}$ D) $\frac{1}{2}$
26. Ikki ishchi birgalikda ishlab, ma'lum ishni 12 kunda tamomlaydi. Agar ularning biri shu ishning yarmini bajarganidan keyin, ikkinchisi qolgan yarmini bajarsa, ish 25 kunda tamomlanishi mumkin. Ishchilardan biri boshqasidan necha marta tez ishlaydi?
A) 1,2 B) 1,8 C) 1,6 D) 1,5
27. 1 soat 160 minut va 5 sekund necha sekunddan iborat?
A) 12205 B) 13205 C) 14205 D) 106005
28. $A = \{1; 3; 5; 6; 8; 10\}$ va $B = \{5; 6; 7; 8; 10\}$ to'plamlar berilgan. $A \cap B$ to'plam elementlari sonini toping.
A) 3 B) 6 C) 5 D) 4
29. Bir kunlik o'quv jadvalida 4 ta har xil darslarni necha xil usul bilan tuzish mumkin?
A) 12 B) 48 C) 6 D) 24

30. Quyidagi javoblardan qaysi biri bo'sh to'plam.

- A) $A = \{x: \arccos x = 1, x \in R\}$
 B) $A = \{x: \arccos x = 2, x \in R\}$
 C) $A = \{x: \arccos x = 4, x \in R\}$
 D) $A = \{x: \arccos x = 3, x \in R\}$

FIZIKA


31. Tekislik og'ish burchagining sinusi 0,6. Tekislik ustida massasi 8 kg bo'lgan yuk turibdi. Yukni qo'zg'almas ushlab qolish uchun 23 N kuch yetarli bo'ladimi? Ishqalanish koeffitsiyenti 0,5. $g=10$ N/kg.

- A) yetarli emas.
 B) bu kuch yukni yuqoriga tortib ketadi.
 C) ma'lumot yetarli emas.
 D) yetarli.

32. Yerning sun'iy yo'ldoshini aylanma orbitaga chiqarish uchun 8 km/s tezlik berish kerak. Kosmik kema uchun xavfsiz tezlanish 15g ga teng bo'lsa, bu tezlikka erishish uchun qancha masofa talab etiladi (km)?

- A) 113. B) 213. C) 312. D) 200.

33. Qo'zg'almas blokka bir xil m massali 5 ta yuk rasmdagidek osilgan. Yuklar og'irlik kuchi ta'sirida harakatlanganda 3 va 4 yuklar orasidagi ip taranglik kuchini toping. g-erkin tushish tezlanishi.



- A) $8mg/5$. B) $4mg/5$. C) $6mg/5$. D) $12mg/5$.

34. Yassi kondensatorga 4 nC zaryad berilganda uning qoplamlari orasidagi muhitda hosil bo'lgan elektr maydon energiya zichligi $0,2$ mJ/m³ ga teng bo'ldi. Agar kondensator zaryadi 8 nC ga oshirilsa, elektr maydon energiya zichligi qanchaga ortadi (mJ/m³)?

- A) 1,6. B) 1,8. C) 1,4. D) 2,2.

35. Dastlabki tezligi g ($g \ll c$) bo'lgan proton uzoq masofadan dastlab tinch turgan α -zarraga yaqinlashmoqda. α -zarraning tezligi $0,2g$ bo'lgan paytda protonning tezligi qanday bo'ladi? $m_\alpha = 4m_p$

- A) $0,025g$ B) $2g/9$ C) $0,1g$ D) $0,2g$

36. Zarraning harakati jadval ko'rinishida berilgan. Tezlik va tezlanish ta'rifi ko'ra zarraning o'rtacha tezlanishini toping (m/s²).


t (s)	0,7	0,8	0,9
X (m)	1,6	1	-1

- A) 140. B) -140. C) 280. D) -280.

37. Bino lifti 3-qavatdan 11-qavatga 10 s vaqt davomida ko'tarildi. Lift harakat davomida qanday o'rtacha tezlik bilan harakatlangan (m/s)? Bunda qavatlar o'rtasidagi masofa 3 metr.

- A) 4. B) 2. C) 3. D) 2,4.

38. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning uchinchi sekunddagi ko'chishini toping (m).



- A) 13. B) 18. C) 15. D) 17.

39. Vinning siljish qonunini ko'rsating:

- A) $\lambda_{max} = 1,0029/T$. B) $\lambda_{max} = 0,0029 \cdot T$.
 C) $\lambda_{max} = 0,0029/T$. D) $\lambda_{max} = 0,029/T$.

40. Bio-Savar-Laplas qonuni nimani hisoblashga yordam beradi?

- A) yadro kuchlarini.
 B) tokli o'tkazgichdan ajralib chiqqan issiqlikni.
 C) elektr maydonini.
 D) tokli o'tkazgichning magnit maydonini.

41. Ikki mol geliy (He) gaziga izotermik jarayonda 16 J issiqlik berildi? Bunda gaz qancha ish bajardi (J)?

- A) 16. B) 6. C) 12. D) 8.

42. Suv 4 °C dan 6 °C gacha isidi. Bunda uning zichligi qanday o'zgaradi?

- A) o'zgarmaydi. B) ortadi.
 C) avval ortadi, keyin kamayadi. D) kamayadi.

43. Vaqt o'tishi bilan psixrometrning nam termometri ko'rsatishi o'zgarmay, quruq termometrining ko'rsatishi ortsa, nisbiy namlik qanday o'zgaradi?

- A) o'zgarmaydi. B) ortadi.
 C) kamayadi. D) avval ortib, keyin kamayadi.


44. Normal sharoitda gaz molekularining ilgarilanma harakat erkinlik darajasi i_i ga va aylanma harakat erkinlik darajasi i_a ga ega bo'lishi mumkin. Birinchi gaz uchun $i_i - i_a = 0$. Huddi shunday miqdordagi ikkinchi gaz uchun $i_i + i_a = 6$ ga teng. Bir xil haroratda bu gazlarning ichki energiyalari nisbati U_1 / U_2 nimaga teng?

- A) 2. B) 1. C) 1,2. D) 0.

45. Qanday haroratda suyuqlik va to'yingan bug' orasidagi fizik farq yo'qoladi?

- A) kritik haroratda. B) shudring nuqtasida.
 C) erish haroratida. D) qaynash nuqtasida.

46. Nur havodan plastinkaga rasmda ko'rsatilgandek tushmoqda. Agar plastinkaning sindirish ko'rsatkichi n ga teng bo'lsa, n ni toping.



- A) $3/5$. B) $3/\sqrt{5}$. C) $1/2$. D) $1/3$.

47. Qavariq linzaning optik kuchi 5 D, buyum undan 16 cm masofada turibdi. Linza hosil qilgan tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm) toping.

- A) 81. B) 109. C) 75. D) 64.

48. Solishtirma qarshilikka teskari bo'lgan kattalikka ... deyiladi.

- A) elektr o'tkazuvchanlik.
 B) qarshilik.
 C) kuchlanish.
 D) solishtirma elektr o'tkazuvchanlik.

49. O'zgarmas tok manbaiga to'g'ridan to'g'ri ulangan ideal voltmeter nimani o'lchaydi?

- A) qisqa tutashuv tokini.
 B) tok kuchini.
 C) E.Yu.K ni.
 D) manba ichki qarshiligiga tushadigan kuchlanishni.

50. m massali sharcha g tezlikda tinch turgan massiv devorga noelastik urilsa, sharchaning ichki energiyasi qanday

o'zgaradi?

- A) kamayadi. B) o'zgarmaydi.
C) 2 marta ortadi. D) ortadi.

51. Sterjen uchlariga m_1 va m_2 massali ikkita yuk osilgan. Sterjen markazi gorizontol o'qqa mahkamlangan. Strejenni vertikal tekislikda to'liq aylantirish uchun sharchalar massalari nisbati qanday bo'lishi kerak? Sterjen dastlab gorizontol vaziyatda turibdi.
A) 4. B) 1. C) 2. D) 3.
52. Qog'oz qutiga suv solindi. Nima uchun uning devorlari ichkariga tortiladi?
A) elastiklik kuchi ta'sirida.
B) sirt taranglik kuchi ta'sirida.
C) og'irlik kuchi ta'sirida.
D) gidrostatik bosim ta'sirida.
53. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi to'rtinchi marta 1,2 cm ga ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?
A) 8,8. B) 7,6. C) 10. D) 5,6.
54. Kondensatorning sig'imi 120 μF va g'altaning induktivligi 30 H bo'lgan tebranish konturidagi magnit maydon energiyasi o'zgarish davrini aniqlang (ms). $\pi = 3$.
A) 129,6. B) 180. C) 720. D) 360.
55. Dastlab cho'zilmagan va bikrligi $k=120$ N/m bo'lgan prujina maksimal cho'zilganda yukning balandligi $h=0$ deb hisoblab, prujina cho'zilishi nolga teng bo'lgan paytda uning tezlanishini (m/s^2) ni toping?
A) 5,4. B) 0. C) 4,9. D) 9,8.
56. Elektroliz vaqtida 5 s davomida suyuqlikka botirilgan elektrodarga zaryadli zarralar kelib urilmoqda. Agar anod va katoddan mos ravishda 3 C va -3C zaryad o'tsa, tok kuchi nimaga teng bo'ladi (A)?
A) 0,2. B) 1,8. C) 1,5. D) 1,2.
57. Uran ${}^{234}_{92}\text{U}$ izotopidagi ikkita α va ikkita β yemirilishga uchraganidan so'ng yadroddagi elektronlar soni nechtaga teng bo'ladi?
A) 50. B) 40.
C) yadroda elektron bo'lmaydi. D) 90.
58. Neytronning tinchlikdagi massasi m_0 va harakatdagi massasi m ga teng. Agar $\frac{m_0}{m} = \frac{4}{5}$ shart bajarilsa, neytronning impulsini toping.
A) 0,1mc. B) 0,5mc. C) 0,6mc. D) 0,7mc.
59. Vodород atomidagi elektron impuls momenti nimaga teng?
A) $hn / 4\pi$. B) $h / 2\pi$.
C) $hn / 2\pi$. D) hn / π .
60. Spini $s=1$ bo'lgan zarralar?
A) foton, glyuon.
B) elektron, proton, neytron, neytrino, myuon, kvark.
C) π -mezon, K-mezon, η -mezon.
D) Ω -giperon, Δ -rezonans.

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Eski turkiy til davriga oid sandilach, qirg'ilach, sandug'ach so'zlarining hozirgi o'zbek tilidagi ma'nodoshlarini toping.
A) sandilach - sa'va, qirg'ilach - qaldirg'och, sandug'ach - bulbul
B) sandilach - sa'va, qirg'ilach - bulbul, sandug'ach - qaldirg'och
C) sandilach - bulbul, qirg'ilach - sa'va, sandug'ach - qaldirg'och

D) sandilach - bulbul, qirg'ilach - qaldirg'och, sandug'ach - sa'va

62. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
vakuun, valyuta, sazovor, iztirob, hijja
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2
63. Undoshlarning uch tasnifiga ko'ra ham farqlovchi belgilariga ega fonemalar ma'no farqlagan so'zlar qatorini toping.
A) kerak, kesak B) kepak, kesak
C) ko'rik, katak D) ko'sak, ko'mak
64. Pastda, yigirma metrcha quyida, naq oyoqlari ostida Chuqursoy quyosh nurida tasmaday yaltirab oqib yotadi. Berilgan gapda vergulning qo'yilishsababini aniqlang.
A) ajratilgan bo'laklar orasida
B) kirish birikmalar orasida
C) undalma bo'lgani uchun
D) uyushiq bo'laklar orasida
65. Berilgan ergash gapli qo'shma gapning har ikkala qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.
A) Bug'doy ekan bug'doy, arpa ekan arpa o'radi.
B) Maktab deb qurdik bino, hamma ilm olsin deb.
C) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
D) Barcha javoblar to'g'ri.
66. Bir qora ko'z jilmayib qolar,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.
Ushbu she'riy parchada yuz bergan ma'no ko'chishining to'g'ri tavsifini aniqlang.
A) qismning butunni anglatib kelishi
B) bir predmetning ichki o'xshashlik asosida boshqa predmetni anglatib kelishi
C) makon va zamonda bir-birini taqozo etuvchi predmetlar o'rtasidagi bog'liqlik.
D) butunning qismni nomlab kelishi
67. **Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa hamisha vayronani ko'zlaydi.** Bog'lovchi vositalarning ishtirokiga ko'ra, berilgan gap qanday gap turiga kiradi?
A) bog'lovchisiz qo'shma gap
B) bog'langan qo'shma gap
C) ergashgan qo'shma gap
D) biriktiruv boqlovchili qo'shma gap
68. "Olmosh + ot" shaklidagi bog'lanish qaysi yo'llar bilan amalga oshishi mumkin?
A) bitishuv B) boshqaruv
C) A va B D) moslashuv
69. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchi va tobelantiruvchi ohang yordamida bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik nima deb ataladi?
A) gap B) so'z birikmasi
C) turg'un birikma D) lug'aviy birlik
70. Otdan yasalgan otlar qaysi qatorda berilgan?
A) birlik, qarsak B) chirildoq, tezlik
C) toshloq, qalamdon D) yong'in, o'zlik
71. Ham ot, ham sifat yasovchi shakldosh qo'shimchalarni aniqlang.
A) -qi, -choq, -in B) -li, -kash, -im
C) -lik, -zor, -ar D) -kash, -eh, -la
72. Bosh gapning egasi noma'lum gap bo'lgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
A) Har kishi el uchun topsa agar ranj,
Oqibat muyassar bo'lar unga ganj.
B) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa,
aybni o'zingizdan qidiring.
C) Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p o'tinni ozgina o't kuydiradi.

- D) Odamning shunday do'stlari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe'lga qarab gaplashishga to'g'ri keladi.
73. Qaysi so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?
1) yangidan yangi; 2) dum dumaloq;
3) dam badam ; 4) ochiqdan ochiq
A) 1,2,3,4 B) 1,2,3 C) 2,3 D) 1,2,4
74. To'g'ri,yakdilmiz.
Ushbu gap...
A) shaxsi noma'lum gap B) shaxsi umumlashgan gap
C) shaxsi ma'lum gap D) qo'shma gap
75. qonun, farmon, akt, nizomlar Rasmiy uslubning qaysi turiga mansub?
A) idoraviy devonxona uslubi
B) diplomatik uslub
C) sof tadbirkorlik uslubi
D) sof qonunchilik uslubi
76. **Gunohi ne edi bu tilla boshning, Gunohi ne edi porloq quyoshning (I. Sulton).** Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.
A) vazifadoshlik B) sinekdoxa
C) metafora D) metonimiya
77. Qaysi javobda urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan? 1) vodorod; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) bordi.
A) 3, 4 B) 2, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4
78. Qish... Butun atrof oppoq libosda... Ushbu gapda ko'p nuqtaning qo'llanilish sababini izohlang.
A) so'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalagani uchun
B) mazmunan tugallanmay qolgan gap bo'lgani uchun
C) matn qisqartirilgani uchun
D) fikr bo'lib-bo'lib ifodalangani uchun
79. **Qo'llari ketmon, o'roq, ayri ushlayverganidan g'adir-budir, haqiqiy dehqon edilar.** Gapdagi imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'z qaysi turkumga tegishli?
A) fe'l B) ot C) ravish D) sifat
80. Qaysi so'zning oxiriga "t" harfi yozilmaydi?
A) xayolparas.. B) matona..
C) nadoma.. D) daroma..
81. Qaysi yasama so'zlarda morfemalarning agglutinativ tabiati buzilganini kuzatish mumkin?
1) yasha; 2) o'ymakor; 3) parvoyim; 4) o'rnat; 5) yuragi; 6) quvnoq; 7) baodob.
A) 1,6,7 B) 1,3,5,6 C) 1,4,6,7 D) 1,2,6
82. «Susambil» ertagida boy bozordan nima sotib olibdi?
A) Bir qop guruch B) Bir qop shakar
C) Bir qop un D) Bir qop tuz
83. Ulki, iflosdin ayog'inda
Kashf yo'li azmi chog'i yo'qtur oning.
Navoiy ushbu misralarda qanday g'oyani ilgari surgan?
A) ilm olish B) shukr qilish
C) savob qilish D) ehson qilmoq
84. Tuyg'un Eltabar kim, uning nomi quyidagi qaysi asar bilan bog'liq?
A) Kul Tigin bitiktoshida Az xalqiga bek edi
B) To'nyuquq bitiktoshida Turgash xoqonidagi kuzatuvchi edi
C) Kul Tigin bitiktoshida Kul Tiginning qabr toshidagi naqshlarni keltirgan edi
D) Kul Tigin bitiktoshida naqsh solingan bitiktosh yasovchi Tabg'ach xoqonining jiyani
85. Navoiy "Xamsa" sining qaysi dostonida Nizomiy va Dehlaviy madhi bor?
A) "Hayrat ul-abror" B) "Layli va Majnun"
C) "Sab'ayi sayyor" D) "Farhod va Shirin"
86. Alpomish dostonida ajdarho qaysi qahramonga salom beradi?
A) Ko'kaldoshga B) Alpomishga
C) Barchinga D) Qorajonga
87. "Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay" ushbu gapni kim aytgan?
A) Kalonshoh mirzo B) Muhammad Rajabbek
C) Shahodat mufti D) Abdurahmon
88. O'.Hoshimov qissalarini toping. 1. "Odamlar nima derkin", 2. "Bahor qaytmaydi", 3. "Ikki eshik orasi", 4. "Ikki karra ikki besh", 5. "Shamol esaveradi", 6. "To'ylar muborak", 7. "Dunyoning ishlari"
A) 1,2,4,5,7 B) 1,3,4,6,7
C) 1,3,5,6,7 D) 1,2,3,6,7
89. "Qutbdagi gunafsha", "Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l" ertaklari J.Rodarining qaysi turkumidan?
A) "Telefonda aytilgan ertaklar"
B) "CHippolinining sarguzashtlari"
C) "Rim ertaklari"
D) "Uchtadan oxiri bor ertaklar"
90. Najmiddin Kubro haqidagi quyidagi ma'lumot qaysi manbada keltirilgan? "Alarg'a kubro ondin laqab bo'ldiki, har kim bilan munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g'olib bo'lurlar ermish".
A) Najmiddin Kubro "Risolai Najmiddin"
B) Abdurahmon Jomiy "Nafohot ul-uns"
C) Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"
D) Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"

